

**“SURUNKALI GLOMERULONEFRITDA AUTOIMMUN MARKERLARNING
DIAGNOSTIK VA PROGNOSTIK AHAMIYATI ”**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi tayanch doktoranti

Tojiboyeva Dildora

Toshkent tibbiyot akademiyasi Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi dotsent, PhD

Sayfutdinova Zuhra Abdurashid qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi assistant

Karimova Aziza Anvarovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi katta o`qituvchisi

Tairova Go`zal Babakulovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi assistant

Shomansurova Gulzoda Erkin qizi

Hozirgi vaqtida buyrak kasalliklari orasida glomerulonefrit asosiy o`rinlardan birini egallaydi. O`tgan o`n yil mobaynida mamlakatimizda sezilarli darajada buyrak kasalliklar infratuzilmasi o`zgardi. Aholi sog`ligi, tibbiy - ijtimoiy muammolarini o`rganish hamda hal etish davlat va sog`liqni saqlash tizimining eng muhim vazifasiga aylandi.

Glomerulonefrit - bu asosan buyrak glomerulalarining shikastlanishi, shuningdek, kanalchalari va interstitsial to`qimalarining immun yallig`lanish kasalligidir. Shuning uchun buyrak patologiyasi bo`lgan bemorlarda immun buzilishlarni o`rganish dolzarb ilmiy vazifadir. Glomerulonefrit bolalarda eng ko`p uchraydigan buyrak kasalliklaridan biri bo`lib, surunkali buyrak yetishmovchiligi va erta nogironlik rivojlanishiga olib keladi. Tarqalishi bo`yicha u bolalik davrida orttirilgan buyrak kasalliklari orasida siydik yo`llari infektsiyasidan keyin ikkinchi o`rinda turadi. Odatda, kasallik boshlanishidan 1-3 hafta oldin faringit, tonsillit kabi streptokokk infektsiyasi kuzatiladi. O`tkir glomerulonefrit, asosan, betta-gemolitik streptokokkning “nefrogen” shtammlari tufayli

yuzaga kelishi aniqlangan. Buyrak podotsitlarining membranasidagi glikoproteinlarga (PLA2R) qarshi ishlab chiqilgan antitanalardir (Anti-PLA2R) idiopatik membranoz glomerulonefritga olib keladi. Membranoz glomerulonefrit kattalardagi nefrotik sindromning asosiy sababidir. 30% hollarda u tizimli kasallik (tizimli qizil bo'richa, gepatit B, yomon sifatli o'smalar) yoki dori vositalariga reaksiya fonida rivojlanadi. Ko'pgina hollarda kasallikning sababini aniqlab bo'lmaydi va birlamchi (idiopatik) membranoz glomerulonefrit deb ataladi.

Fosfolipaza A2 retseptoriga qarshi antitanalar (Anti-PLA2R) podotsit membranasi glikoproteinlariga (PLA2R) qarshi qaratilgan autoantitanalardir. Ular idiopatik membranoz glomerulonefritning (membranoz nefropatiya) maxsus klinik va laborator belgisi bo'lib, immunoglobulin IgG ga tegishli. Anti-PLA2R kontsentratsiyasini bir necha usullar bilan o'lchash mumkin. Ushbu antitanalarni aniqlashning eng sezgir usullaridan biri fermentga bog'liq immunosorbent tahlilidir (ELISA).

Fosfolipaza A2 retseptoriga qarshi Anti-PLA2R antitanalari birlamchi membranoz glomerulonefrit bilan og'rigan bemorlarning 52-82 foizida topiladi. Biroq, sog'gom odamlarning qonida va ikkilamchi membranoz glomerulonefritda (IgA nefropatiya, fokal segmentar glomeruloskleroz, lipoid nefroz) Anti-PLA2R aniqlanmaydi. Shuning uchun Anti-PLA2R dan glomerulonefrit va nefrotik sindromning differentsiyal diagnostikasi uchun foydalanish mumkin. Anti-PLA2R ni tekshirish kasallikning prognozini baholash uchun zarur: Anti-PLA2R titri yuqori bo'lganda kasallikning qo'zishi 8 barobar ko'proq kuzatiladi (4% ga nisbatan 38%). Shu bilan birga, Anti-PLA2R davolanishni baholash uchun ham mumkin. Anti-PLA2R titri kasallikning faolligini va proteinuriya darajasini aks ettiradi: idiopatik membranoz glomerulonefritning yuqori faolligi va massiv proteinuriya bo'lgan bemorlar qonida Anti-PLA2R ning titri yuqori bo'ladi. Aksincha, kasallikni davolash vaqtida Anti-PLA2R kontsentratsiyasi pasayadi va kasallikning remissiya davrida aniqlanmaydi. Idiopatik membranoz glomerulonefritning qaytalanishi ham Anti-PLA2R titrining oshishi bilan birga kechadi.

Xulosa:Anti-PLA2R ni erta aniqlash glomereulonefrit bilan kasallangan bemorlarda immun patologiyasini o'z vaqtida aniqlashga hamda og'ir asoratlarning oldini olishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Vahagn Shant Keskinyan, Brittany Lattanza, Jessica Reid-Adam Affiliations Expand. Glomerulonephritis. Pediatr Rev.2023 Sep 1;44(9):498-512.doi: 10.1542/pir.2021-005259.
- 2.Ramnath Balasubramanian, Stephen D Marks Post-infectious glomerulonephritis. Paediatr Int Child Health. 2017 Nov;37(4):240-247. doi: 10.1080/20469047.2017.1369642.Epub 2017 Sep 11.
- 3.Yasuhiro Tomino. [Article in Japanese] Chronic glomerulonephritis Nihon Jinzo Gakkai Shi.2007:Suppl 50th Ann:33-7.: PMID:17899825
4. Anas AlYousef, Ali AlSahow, Bassam AlHelal, Ahmed Alqallaf, Emad Abdallah, Mohammed Abdellatif, Hani Nawar Riham ElMahalawy BMC Nephrology volume 21, Article number:186 (2020)Ci
Published:18 May 2020. Glomerulonephritis Histopathological Pattern Change